

Bojxona institutiga ishga qabul qilish

Bojxona instituti professor-o'qituvchi lavozimlariga ishga kirish istagida bo'lgan fuqarolar ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar bo'sh ish o'rinlari bo'yicha new.customs.uz sayti orqali berilgan onlayn murojaatlari asosida ko'rib chiqiladi.

Professor-o'qituvchi lavozimlariga ishga kirish tanlovida oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek ilmiy daraja (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.

Ilmiy daraja va unvonga ega, xorijiy til bo'yicha amaldagi sertifikat mavjud, oxirgi 3 yilda pedagogik malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o'tgan fuqarolarga boshqa nomzodlarga nisbatan ustunlik beriladi.

Nomzodlar xizmatga qabul qilishda quyidagi tanlov bosqichlaridan o'tadi:

- Dastlabki suhbat (diktant, psixologik test, yakka tartibda suhbat);
- Jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash;
- Maxsus tekshiruv;
- Tibbiy shahodatlash;
- Yakuniy suhbat.